



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MAQSADLI TAQDIMOTLAR YARATISHNI O'RGATISHDA KEYS TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.

Karimov Qayum Mamashayevich

*Qarshi davlat universiteti,
algoritmlar va dasturlash texnologiyalari kafedrası professori*

Аnnотatsiya

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga maqsadli taqdimotlar yaratishni o'rgatishda keys (case-study) texnologiyasidan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida keys metodining o'quvchilarning kreativ fikrlash, tahliliy tafakkur va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: keys texnologiyasi, taqdimot, pedagogik texnologiya, interfaol metod, kompetensiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования кейс-технологии при обучении созданию целевых презентаций в общеобразовательных школах. Обоснована эффективность компетентностного подхода и метода case-study в развитии аналитического мышления, креативности и коммуникативных навыков учащихся.

Ключевые слова: кейс-технология, презентация, педагогическая технология, интерактивные методы, компетентность, информационно-коммуникационные технологии.

Abstract

This article analyzes theoretical and practical aspects of using case-study technology in teaching students to create purposeful presentations in general



secondary schools. The effectiveness of the competency-based approach and case-study method in developing students' analytical thinking, creativity, and communication skills is substantiated.

Keywords: case-study technology, presentation, pedagogical technology, interactive methods, competency, information and communication technologies.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish va uni samarali taqdim eta olish kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida maqsadli taqdimotlar yaratish ko'nikmasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy o'qitish metodlari o'quvchilarning ijodiy va tahliliy faolligini to'liq ta'minlay olmaydi. Shu bois interfaol metodlar, xususan, keys texnologiyasini qo'llash zarurati yuzaga keladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiya, shu jumladan, keys texnologiyasini tatbiq etish kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan umumiy jarayon mazmunining sifat jihatidan o'zgarishini ta'minlaydi.

Keys texnologiyasidan foydalanish holatini o'rganish, tahlil etish, ulardan samarali foydalanish metodikasini, mos uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish zarur[1,2].

Keys texnologiyasi muammoli vaziyatni tahlil qilish va optimal yechim ishlab chiqishga asoslangan interfaol metoddir. Mazkur metod o'quvchilarni faol o'quv subyekti sifatida shakllantiradi. Maqsadli taqdimot esa aniq auditoriya va maqsadga yo'naltirilgan vizual-axborot mahsuloti hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv va so'rovnoma metodlardan foydalanildi. Keys texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarga real yoki shartli muammoli vaziyatlar taqdim etildi. Ular guruhlarda



muammoni tahlil qilib, maqsadli taqdimot loyihasini ishlab chiqdilar va himoya qildilar.

Keys texnologiyasi asosida maqsadli taqdimotlar yaratishni o'rgatish kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga to'liq mos keladi va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanida maqsadli taqdimotlar yaratishni o'rgatish uchun bir nechta keyslarni keltiraylik:

1-Keys. "Axborot va uning xossalari"

Vaziyat: 6-sinf o'quvchilari "Axborot va uning xossalari" mavzusini boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushuntirish uchun taqdimot tayyorlaydi.

Muammo: Nazariy tushunchani sodda va vizual ko'rinishda yetkazish.

Vazifa:

- Axborot turlari bo'yicha piktogrammalar
- Hayotiy misollar
- 6 slayddan oshmagan taqdimot.

2-Keys. "Kompyuter qurilmalari"

Vaziyat: O'quvchilar kompyuterning asosiy qurilmalari haqida taqdimot tayyorlaydi.

Muammo: Texnik terminlarni murakkablashtirmaslik.

Vazifa:

- Kiritish/chiqarish qurilmalari jadvali
- Qurilma rasmlari
- Funktsiyalarni qisqa izohlash.

3-Keys. "Operatsion tizimlar"

Vaziyat: O'quvchilari operatsion tizimlar haqida taqdimot qiladi.

Muammo: Turli tizimlarni solishtirish.

Vazifa:

- Taqqoslash jadvali



- Afzallik va kamchiliklar
- Real misollar.

4-Keys. “Fayl va papka bilan ishlash”

Vaziyat: Amaliy mashg‘ulot uchun yo‘riqnoma taqdimoti.

Muammo: Amaliy bosqichlarni aniq ko‘rsatish.

Vazifa:

- Bosqichma-bosqich skrinshot
- 1 slayd – 1 amal
- Xatoliklar bo‘yicha ogohlantirish.

Har bir keys informatika mazmuni, muammoli vaziyat va taqdimot kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda keys metodini qo‘llash natijasida quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi:

1. O‘quvchilarning darsdagi faolligi oshdi.
2. Axborotni saralash va tizimlashtirish ko‘nikmalari rivojlandi.
3. Auditoriyaga mos taqdimot yaratish kompetensiyasi shakllandi.
4. Jamoada ishlash va nutq madaniyati yaxshilandi.

Keys texnologiyasi asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar an’anaviy darslarga nisbatan yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi. O‘quvchilar muammoni mustaqil hal qilishga intildi, dizayn va mazmun uyg‘unligiga e’tibor qaratdi, hamda taqdimotning maqsadga yo‘naltirilganligini ta’minladi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida maqsadli taqdimotlar yaratishni o‘rgatishda keys texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning kreativ, tahliliy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu metod ta’lim jarayonini interfaol tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini faollashtirish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Keys texnologiyasini informatika va boshqa fanlarda qo‘llash ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Мамашаевич К. Қ. «Maple» дастурлаш тилини ўргатишда кейс-технологиясидан фойдаланиш //Современное образование (Узбекистан). – 2018. – №. 8. – С. 37-41.
2. Мамашаевич К. Қ. АМАЛИЙ ДАСТУР ПАКЕТЛАРИНИ ЎРГАТИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Современное образование (Узбекистан). – 2020. – №. 9 (94). – С. 77-82.
3. Karimov Q. M., Omonova S. M. O 'QUVCHILARGA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA OID BILIMNI O 'RGATISHDA INTERNETDAN FOYDALANISH //Экономика и социум. – 2024. – №. 2-1 (117). – С. 359-364.
4. Karimov Q. M., Sherboyev Q. X. UMUMIY O 'RTA TA 'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI BO 'YICHA DARSNI ELEKTRON MATERIALLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH //Экономика и социум. – 2024. – №. 5-1 (120). – С. 385-394.
5. Karimov K. M. ORGANIZING TEACHING PROCESS USING LOCAL COMPUTER NETWORK //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 5. – С. 131-133.
6. KARIMOV K. M., AKHMEDOV H. A. TEACHING TO SOLVE ALGEBRAIC EQUATIONS IN GRAPHIC METHOD TO STUDENTS BY USING PRACTICAL SOFTWARE PACKAGE //ББК 60 Н 34. – 2022. – С. 18.